

## ESHTISH ANALIZATORINING BUZILISHI VA UNING BOLA RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20200003>

**Lutfillateva Marziya Ahmadillo qizi**

*Fan va texnologiyalar universiteti Maxsus pedagogika 1/25 talabasi*

### **Anotatsiya**

Ushbu maqolada eshitish analizatorining buzilishi va uning bola psixik hamda nutqiy rivojlanishiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Eshitish analizatori tarkibi, uning fiziologik asoslari hamda buzilish turlari yoritilib, eshitish nuqsonining bilish jarayonlari, nutq shakllanishi va ijtimoiy moslashuvga ko'rsatadigan ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, maqolada eshitish analizatori faoliyatidagi buzilishlar natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsonlar hamda ularning oldini olish yo'llari ko'rib chiqilgan.

### **Kalit so'zlar**

eshitish analizatori, eshitish nuqsoni, nutq rivojlanishi, bilish jarayonlari, korreksion ta'lim, surdopedagogika, erta diagnostika.

**Kirish.** Nutq - murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bolib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yoli bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam boglangan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko'p jihatdan talaffuzga bogliq. Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi - o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarining tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi. So'z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Ikkala signal sistemasi, shuningdek, idrok bilan so'zning o'zaro aloqada bo'lishi aqliy rivojlanishning asosini tashkil etadi.

Surdopedagogika fanida eshitishda nuqsonlari bor bolalar kam, zaif eshituvchi, kech karbo'lib qolgan bolalar guruhiga b o'lib o'rganiladi. Tug'ma hali tili chiqmagan go'daklik davrida ikkala quloqning rautlaqo eshitmasligi karsqovlikka olib keladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy

nuqsonga uchragan bolalar zaif eshituvchi bolalar guruhiga kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib bolgandan so'ng yaxshi eshitmaydigan bo'lib qolgan bolalar kech kar bo'lib qolganlar guruhiga kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topganidan so'ng vujudga kelsa ham, quloqdagi nuqson tufayli eshitishga xos kamchiliklar bolaveradi, eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslaming ta'limi va tarbiyasini tashkil etishni o'rganuvchi fan surdopedagogika fani hisoblanadi. Surdopedagogika - (lotincha surdos - kar) bu maxsus pedagogikaning tarkibiy bo'limi bo'lib, surdopedagogikaning umumiy maqsadi muloqot va bilish subyektini sifatida eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxsning jism oniy, ruhiy va ijtimoiy sifatlarini rivojlantirishdir. Ta'limiy vazifalar eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ta'limga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ularning rivojlanish va mustaqil bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart sharoitlar yaratish. Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslaming dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirish. Kar va zaif eshituvchi bolalar tafakkurining rivojlanishini ular imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'minlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. O'quv faoliyati ko'nikma va malakalarini shakllantirish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, maqsadga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida kognitiv jarayonlari faollashtirilgan. - Kasbiy faoliyatga tayyorlash, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda mehnat faoliyati uchun lozim bo'lgan tasavvur, ko'nikma va malakalami rivojlantirish.

Rus olimi Lev Vgodiskiy "Bolaning rivojlanishidagi nuqson uning biologik kamchiligida emas, balki ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatning buzilishidadir" [1] deb ta'kidlagan. Bizning fikrimizcha, u maxsus ta'lim va to'g'ri pedagogik yondashuv yordamida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ham to'laqonli rivojlanishi mumkinligini ko'rsatgan. Eshituv analizatori buzilgan bolalarda asosiy muammo faqat eshitishning yo'qligi emas, balki ularning jamiyat bilan to'liq muloqot qila olmasligidadir. Agar bola erta yoshdan maxsus pedagogik yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash olsa, uning nutqiy hamda intellektual rivojlanish darajasi sezilarli darajada yaxshilanadi. am to'laqonli rivojlanishi mumkin.

Yana bir rus olimi Ivan Pavlov shunday degan "Analizator faoliyatining buzilishi oliy nerv faoliyatining o'zgarishiga olib keladi"[2] deb fikr yuritgan. Bizning fikrimizcha Pavlov Eshituv tizimidagi nuqson bolada shartli refleklar shakllanishini sekinlashtiradi, ya'ni bola yangi ma'lumotni qabul qilish va uni xotirada saqlash qobiliyatida qiyinchilikka duch keladi. Qiziqarli jihati shundaki, Pavlovning klassik tajribalari asosida ko'plab zamonaviy tadqiqotchilar eshitish nuqsoni bolaning diqqat, xotira va psixomotor faoliyatiga ham bevosita ta'sir qilishi mumkinligini aniqlashgan. Masalan: Eshitish cheklangan bola yangi so'zlarni yoki tovushlarni tez o'zlashtira olmaydi. U shartli refleklarni

shakllantirishda ko'proq vizual yoki taktil yordamga muhtoj bo'ladi. Bosh miya tizimida kompensator mexanizmlar ishga tushadi: vizual va boshqa sezgi kanallari orqali informatsiya qabul qilish kuchayadi.

Shunday qilib, Pavlovning nazariyasi faqat fiziologik jarayonni emas, balki bolaning kognitiv va nutqiy rivojlanishining neyropsixologik asoslarini ham tushuntirishga imkon beradi.

Jean Piaget o'zining *The Origins of Intelligence in Children* kitobida shunday degan "Til va nutq rivojlanishi bolaning umumiy intellektual rivojlanishining bir qismidir; bolaning atrofidagi muhit bilan aloqasi uning idrok qobiliyatini shakllantiradi"[3] degan g'oyani ilgari surgan. Bizning fikrimizcha, u bola dunyoni faqat sezgi va harakat orqali o'rganadi. Bu "sensorimotor" bosqichdan boshlanadi, keyinchalik esa til va mantiqiy fikrlash rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, bolaning nutq va til rivojlanishi uning idrok qobiliyati va sezgi tajribasiga bevosita bog'liq. Agar bolaning tovushlarni qabul qilish va idrok etish qobiliyati (ya'ni eshitish analizatori) normal ishlamasa, u tilni tushunish va nutq rivojlanishida kechikishga duch keladi.

Luriya esa bu haqda shunday deb tarif beradi "Bolalarning miyasida eshitish va nutqni qayta ishlash tarmoqlaridagi buzilishlar ularning til, eshitish va o'qish ko'nikmalarini sezilarli darajada cheklashi mumkin." [4]. Bizning fikrimizcha Luriya bola miyasidagi markaziy eshitish tizimi va tilni qayta ishlash tarmoqlarini o'rgangan. U shunday deb ta'kidlaydi, agar bu neyron tarmoqlarda buzilish bo'lsa, bolaning nutq, til va o'qish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi.

Bu fikrlar APD (Auditory Processing Disorder) va boshqa eshitish analizatori buzilishlarini tushuntirishda juda muhim. Piaget bolaning nutq va til rivojlanishini uning umumiy intellektual rivojlanish bosqichlari bilan bog'laydi. U fikricha, bola dunyoni sezgi va harakat orqali o'rganadi, keyinchalik esa til va mantiqiy fikrlash rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, agar bola tovushlarni to'g'ri qabul qilmasa yoki idrokida qiyinchilik bo'lsa, nutq va til rivojlanishi kechikishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vygotskiy L.S. Основы дефектологии. – М.: Педагогика, 1983.
2. Ivan Pavlov Лекции о работе больших полушарий головного мозга. – Л.: 1927.
3. Piaget J. *The Origins of Intelligence in Children*. – New York: International Universities Press, 1952.
4. Luriya A.R. Основы нейропсихологии. – М.: МГУ, 1973

5. Rasulov R. Zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarning jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarga bo'lgan ta'siri // «ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.12. – C. 176-179.
6. Rasulov R. Raqamli transformatsiya davrida siyosiy mafkuralarning kelajakdagi shakllanish imkoniyatlari // «ACTA NUUZ». – 2026. – T. 1. – №. 1.2. – C. 163-165.
7. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process // International Conference on Arts, Society & Humanities. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 35-39.
8. Rasulov, R. "The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth." Академические исследования в современной науке 3, no. 48 (2024): 124-132.
9. Odilovich, Rasulov Rustambek. The importance of youth-oriented structures established in the country in the political socialization of youth Vol. 3 No. 12 (2024): International journal of european research output (IJERO).
10. Odilovich R. R. The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development // Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2024. – T. 37. – C. 32-41.
11. Odilovich R. R. Yoshlar bilan ishlash tizimida ma'naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta'siri // International Journal of Scientific Research. – 2023. – T. 2. – C. 147-152.
12. Odilovich R. R. Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505 [Электронный ресурс].
13. Rasulov R. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri // «ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.4. 1. – C. 169-171.
14. Tursunov O., Rasulov R. O. Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish: C# WinForms asosida kalkulyator modeli // Academic Research in Modern Science, International scientific-online conference. – 2023.